

“Tanlab o‘qish” mashqi o‘tkaziladi.

Jadvaldagi hayvonlar haqidagi ma’lumotlarni ertakdan topib o‘qitiladi.

Mashq daftari bilan ishlash. Mashq daftaridagi topshiriqlar bajariladi.

O‘rmon oshxonasiga kelgan hayvonlarning nomi chap ustunga, ular buyurgan yeguliklari o‘ng ustunga yoziladi.

Kuchuk	➡	Suyak
Maymun	➡	Achchiq choy
Mushuk	➡	Sutga to‘g‘ralgan non
Tulki	➡	Kakao, tovuq
Qo‘zi	➡	Beda
Olmaxon	➡	Yong‘oq
To‘ng‘iz	➡	Chirik oshqovoq
buzoq	➡	Kunjara, somon
kirpi	➡	suvilon
ot	➡	suli

“Bog‘la” mashqi.

Qahramonlar o‘z bajaradigan vazifasi bilan moslashtiriladi.

Quyvon - bosh oshpaz, Bo‘ri - o‘t qalovchi, Ho‘kiz - qorovul, echki - ofitsiant.

IV. Darsni yakunlash va baholash. (3 daqiqa)

- Adabiy ertaklar haqida nimalar bilib oldingiz?
- Sizga nima yangilik bo‘ldi?

V. Uyga vazifa. (2 daqiqa) Ertakni ifodali o‘qing. Tasavvuringizdagi o‘rmon oshxonasining rasmini chizing.

7-Mavzu: Tabiat in‘omi

Darsning maqsadi:

- Zamira Ibrohimovanning “Suv va Daraxt” ertagi bilan tanishtirish;
- tabiat in‘omi haqida ma’lumot berish;
- rollarga bo‘lib o‘qish ko‘nikmasini o‘stirish.

Tayanch so‘zlar: tabiat in‘omi, suv, buloq, kamtarlik, beg‘araz yordam.

Didaktik materiallar: mavzuga mos rasmlar.

Darsning borishi:

I. Darsning kirish qismi. (3 daqiqa)

Darsni tashkil qilish.

Faollashtiruvchi mashq: harflardan soʻz hosil qiling.

BITATA

II. Oʻtilganlarni takrorlash. (7 daqiqa) Ertakni ifodali oʻqitiladi. Savollar bilan mustahkamlanadi. Chizilgan rasmlari koʻrsatiladi.

III. Darsning asosiy qismi. (30 daqiqa)

Amaliy topshiriq: Partadoshingiz bilan darslikda berilgan topishmoqlarni oʻqing va javobini toping.

Qilich urdim

Oʻrni yoʻq. (Suv)

Qozonda emas qaynaydi.

Qishin-yozin tinmaydi. (Buloq)

Muhokama uchun savollar.

1. Topishmoqning javobiga qaysi soʻzlar toʻgʻri kelishi mumkin?

2. Topishmoqning javobini qaysi soʻzlar yordamida topdingiz?

Mavzuni tushuntirish.

Suhbat uyushtiriladi.

1. Suv va buloqni tabiatning inʼomi deyaolamizmi?

2. Tabiat inʼomi deganda nimani tushunasiz?

3. Yana nimalarni tabiat inʼomi deb hisoblaysiz?

Matn ustida ishlash. Muallif haqida qisqacha maʼlumot beriladi.



Bolalar adibasi Zamira Ibrohimova Namangan shahrida tugʻilgan. Uning bolalar uchun hikoya va ertaklar yoza boshlashiga uxlashni yoqtirmaydigan oʻgʻilchasi sababchi boʻlgan. Adibaning **“Uyqu nega xafa boʻldi?”**, **“Hisobda adashgan bola”**, **“Gulbahorning doʻstlari”** kabi toʻplamlari nashr etilgan.

Zamira Ibrohimovaning “Suv va Daraxt” ertagi navbatma-navbat oʻqitiladi. Ertak yuzasidan savollarga javob beriladi.

1. Ertak qanday boshlandi?
 2. Buloq suvi qanday oqishni boshlabdi?
 3. Nima uchun Daraxt Buloqni mensimay qo'ydi?
 4. Ayting-chi, Buloq nega o'z oqimini o'zgartirdi?
 5. Agar suv eski yo'nalishi bo'yicha oqa boshlamaganida nima bo'lar edi?
 6. Ertakdan qanday xulosa chiqardingiz?
 7. O'ylab ko'ring, ertakka yana qaysi qahramonni qo'shgan bo'lardingiz?
- Sizning ertagingiz qanday yakun topgan bo'lar edi?

Matndagi notanish so'zlar yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi.

dimog'i ko'tarilgan – boshqalardan o'zini baland tutadigan, kekkaygan, mutakabbir.

mensimaslik – nazar-pisand qilmaslik.

mag'rur – o'z qadr-qimmatini saqlagan, g'ururli.

hamkorlik – birgalikda bajarish.

Mashq daftari bilan ishlash.

Ertakni tahlil qilinadi.

Asar nomi: Suv va Daraxt

Muallifi: Zamira Ibrohimova

Qahramonlari: Daraxt, Suv.

Asar nima haqida? O'zaro hurmat, qadr-qimmat...

Sizga yoqqan tomonlari? (O'quvchilar ertakdan o'ziga yoqqan tomonini yozadi.)

Qahramonga tavsif (Daraxt): baland, dimog'i ko'tarilgan, kekkaygan...

Qahramonga tavsif (Suv): kamtar, foydasi tegadigan...

Asosiy g'oya: Atrofdagilarning qadriga yetish,...

Ertak mazmuniga mos rasm chiziladi.

“Oynadagi aks” mashqi.

Juftlikda darslikda berilgan maqollarning oynadagi aksi o‘qitiladi va mazmunini izohlanadi.

.rahvag–vus , anizax–reY

Yer – xazina, suv – gavhar.

.nok samtib – vus-reY

Yer-suv – bitmas kon.

IV. Darsni yakunlash va baholash. (3 daqiqa)

- Tabiat in’omi haqida nimalarni bilib oldingiz?
- Ertakdan qanday xulosa chiqardingiz?
- Atrofdagilarga qanday munosabatda bo‘lish kerak deb hisoblaysiz?

V. Uyga vazifa. (2 daqiqa)

Ertakni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering. Sevimli ertagingiz haqida ma’lumot tayyorlang.